



Alisher Navoiy So'fiylar Haqida

Djalilov Baxtiyor Xidayevich

Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Dotsenti, Falsafa Fanlari Nomzodi

Annotasiya: Alisher Navoiy o'z davrining buyuk qomusiy olimi, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarning etuk bilimdoni edi. Uning asarlarida, tasavvuf shayxlari va avliyolari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar bor. Mazkur maqolada Navoiyning sufizm vakillariga bo'lgan munosabati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, vahdat-ul-vujud, tavhid, zuhur, Naqshbandiyya, tariqat, "komil inson".

"Nasoyim ul-muhabbat" asari sobiq tuzum davrida, Navoiy qalamiga mansub ilohiyotga oid boshqa asarlar kabi ta'qiq pardasiga o'ralgan, to'liq va ko'p nushada nashr etilmagan, o'ta tor mutaxassislar doirasiga ma'lum bo'lgan asar edi. Ushbu tazkira mustaqillik tufayli keng kitobxonlar ommasiga ma'lum bo'ldi, ammo hali hanuz har bir xonadonga etib bormagan. Ushbu asarda targ'ib etilgan milliy va diniy qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

"Nasoyim ul-muhabbat" agiografik (aziz-avliyolarning hayoti va ijodi haqidagi) asarlar sirasiga kiradi va unda 770 ta buyuk shayxlar, tasavvuf vakillari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi (2). Qiyoslash uchun: Farididdin Attorning "Tazkirat-ul-avliyo" asarida 196, Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min-hazarot ul-quds" asarida 618 ta buyuk shayxlar to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Tasavvuf tariqatlari juda xilma-xil, ta'limotlardagi tafovutlar ba'zan er bilan osmon, suv bilan havo kabi bo'lishiga qaramay, Hazrat Navoiy barcha sufiylar uchun umumiy jihatlarni topa olgan. "Bularning avval ishlari tavadurkim... va andin so'ng luqma hilliyati" (1). Luqma halolligi, rizq-ro'zni peshona teri bilan topish, ta'magir bo'lmay, qanoatda yashash Navoiy uchun eng yuksak qadriyat bo'lgani uchun ham sufiylarning bu xislati yuqori o'ringa qo'yilgan. Navoiyning ta'kidlashicha, mashoyixlar orasida "Qamar US-sufiya" nomi bilan mashhur Abu Said Xarroz etikdo'z bo'lgan ekan, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik mansubdur, Shayx Abu Hafz Haddod temirchilik qilibdur, Shayx Abubakr Xabboz o'tmakchilikka (nonvoylikka) mashhurdur, Shayx Abulabbos Omiliy Qassobliq qilibdur, Shayx Ibrohim Ojuriy g'isht qo'ygan, yana bir buyuk zot hammol, boshqasi Najjor (duradgor) bo'lganlar. Va oxirgi zamon mashoyixlaridan Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband kimxobga naqsh tushurganlar (2).

Ushbu asarda avliyolarning hikmatli so'zlari, ibratli ishlari haqida juda ko'p ma'lumotlar keltirilgan, o'ta qiziqarli voqea va hodisalar tavsif etilgan. Masalan, molik dinor kemaga chiqib, sohilga etgach, kemachilar haq talab qilibdilar, uning berarga hech vaqosi yo'qligini bilib, kaltaklay boshlabdilar. Shunda bu Shayx bir duo o'qigach, yuzlab baliqlar, har birining og'zida bir tilla tanga, suvdan bosh chiqaribdilar. Yoki, Qodiriyya tariqati asoschisi Abdulqodir G'iloniy 18 yoshida haj safarini ixtiyor etib, yo'lda karvon qaroqchilar hujumiga uchraydi. Onasi eski to'niga tikkan 40 tilla tangasi borligini aytib, o'g'rilarini avval hayratga tushiradi, so'ng avliyolik qudrati bilan hidoyat yo'lga soladi. Pahlavon Mahmud Hind podshosini o'zining beqiyos jismoniy kuchi bilan emas, ma'naviy quvvati bilan rom etadi. Jaloliddin Rumiy 6 yoshida osmon tomiga ko'tariladi. Alisher Navoiy ba'zi karomat sohiblarining o'tda yonmagani, suv ustida yura



olishi, soniyada bir joydan boshqa manzilga ko'cha olishi (teleportasiya), o'zgalarning fikrini o'qiy olishi (telepatiya) va shu kabi g'ayrioddiy voqealar haqida astoyidil ishonch bilan yozadi. Kamdan kam hollardagina, aql bovar qilmas karomatlar to'g'risida, "Vallohu a'lam" (Alloh bilguvchiroq) deb izoh beradi.

Buyuk Ozorbayjon mutafakkiri, Xamsaxonlik an'anasining asoschisi Nizomiy Ganjaviyga Alisher Navoiyning hurmati va e'tiqodi cheksiz bo'lgan. O'zbek shoiri o'z o'tmishdoshini buyuk sufiylar, aziz avliyolar qatorida vashf etadi.

Biz so'z yuritayotgan asarda quyidagilar yozilgan: Shayx Nizomiy (sirlari muqaddas bo'lib qolsin) zohiriy ilmlari mukammal bor ermish. Ammo barchadin qo'l tortib, haq taologa yuzlanibdilar. Ularning so'zlari: yulduzlarning barcha daqiqalariyu ilmlarning yashirin sirlarini birin-ketin o'qidim. O'qidimu har bir varaq sirini axtardim. Seni topgach, varaqlarni yuvdim. Hammaning yuzini Xudoda ko'rdim va u Xudoni hammadayu senda ko'rdim. Bu buyuk zot o'z umrini avvaldin oxirigacha qanoatu taqvo bilan, uzlatda (yolg'izlikda) o'tkazibdurlar va hargiz hirsu havoga berilmabdilar (1). Navoiy o'zi uchun salaf, ustoz, pir hisoblagan Nizomiyga Xamsadagi har besh dostonida munosib o'rin ajratgan.

Har bir shayxni ta'riflar ekan, Navoiy o'zining insonparvarlik, adolatpeshalik, mehr-muruvvat va kamtarlik tamoyillariga sodiq qoladi. Hazrat Navoiyning o'zi tasavvufning naqshbandiylik sulukiga e'tiqod qilib, undagi mehnatsevarlik, poklanish, halollik, imon-e'tiqodli bo'lish kabi g'oyalarni yanada rivojlantirdi. Bahovuddin Balogardon iymonni mundaq ta'rif qilibdurlar: iymon – qalbni Allohdan boshqa o'ziga rom etuvchi foydali va foydasiz narsalardan uzib, Haqqa bog'lashdir. Va der ermishlarki, bizing tariqimiz suhbatdur va xilvatda shuhratdur va shuhratda ofat". Navoiy ham yolg'izlikka intilish, uzlatga chekinish yaxshi emasligini, doimo xalq bilan bo'lib, bir nafas ham Haqni unutmaslikni yoqlagan. "Desang xilvatim anjuman bo'lmasun, kerak anjuman ichra xilvat sanga. Vatan ichra sokin bo'lib soyir o'l, safardin agar bo'lsa mehnat sanga. Nazarni qadamdin yiroq solmag'il, bu yo'l azmi agar bo'lsa rag'bat sanga... Bu ohang ila bo'lg'usi Naqshband, Navoiy, agar etsa navbat sanga", deb yozgan edi buyuk mutasavvif shoir (2) .

Butun dunyo Alisher Navoiyni buyuk shoir va mutafakkir, Temuriylar davrining atoqli davlat arbobi sifatida biladi. U olim-faylasuf, tarixchi, tilshunos, musiqashunos sifatida ham keng mutaxassislar doirasiga mashhur. Ammo uni ko'zga ko'ringan ilohiyot olimi, hadis targ'ibotchisi, agiografik asarlar muallifi, fantastika asoschisi sifatida kamdan-kam odam taniydi. Uning ijodining ko'p qirralari haligacha chuqur o'rganilmagan, falsafiy dunyoqarashi to'liq tadqiq etilmagan, xizmatlari munosib baholanmagan. Alisher Navoiyning o'zi alohida maqtovg'a muhtoj bo'lmasa-da (u hayotligidayoq Shuhrat cho'qqisiga chiqib, tirik afsonaga aylangan edi), bizning burchimiz buyuk mutafakkir betakror ijodining butun teranligini jahon jamoatchiligiga etkazishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: "bugungi kunda O'zbekistonning ixtisoslashtirilgan ilmiy fondlarida 100 mingdan ortiq qo'lyozma asarlar saqlanayotgan bo'lib, ularning aksariyati YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan", deb ta'kidlagani bejiz emas. Navoiy asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish, ularni falsafa va she'riyatning qadriga etuvchilar bilan yaqindan tanishtirish borasida olimlar va mutaxassislarning zimmasida katta ishlar turibdi.

Alisher Navoiy o'zining dahosi, iste'dodi bilan ko'plab avlodlarni lol qoldirgan buyuk shaxs edi. Uni eng sof tafakkurning bitmas-tuganmas manbasiga, donishmandlikning tubsiz xazinasiga qiyoslash mumkin. Bizga buyuk bobomiz Alisher Navoiy qoldirgan meros bitmas-tugunmas hazinaga, hikmat javohirlariga to'la ummonga o'xshaydiki, unga har safar sho'ng'igan g'avvos (tadqiqotchi) yangi bir duru Gavhar topaveradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 19.10.2020, №4865
2. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanishi tarixidan - T., 1960.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik,. 3-tom, Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy // mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik,. 11-tom.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, 16-tom.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, 17-tom
6. Zohidov V. Ulug'o'zbek shoiri - T., 1948.
7. Qayumov A.P. ""Hayratul-Abror" talqini: ijtimoiy-falsafiy motivlar". - T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
8. Haqqulov I. "El netib topkay menikim..." "Yoshlik" jurnali. - 1987.- № 2.- B.71-72.